

Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil etildi.

Boshqarma tarkibida uchta bo‘lim: Chet tillarni bilish darajasining pedagogik o‘lchovlarini rivojlantirish, Chet tillarini bilish darajasini baholashning texnik-dasturiy ta‘minotini rivojlantirish, Test sinovlarini tashkil etish va malaka sertifikatlarini berish bo‘limlari tashkil etildi.

Boshqarmaning asosiy vazifasi – xalqaro e‘tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy qilishdan iborat.

Chet tillarni bilish darajasining pedagogik o‘lchovlarini rivojlantirish bo‘limi

Bo‘limning asosiy vazifasi xalqaro e‘tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini aniqlashning Milliy test tizimining pedagogik o‘lchovlarini ishlab chiqish hamda rivojlantirishdan iborat.

Bo‘limning funksiyalari quyidagilardan iborat:

baholash vositalarni ishlab chiqishning umumiy talablarini belgilaydi hamda joriy etadi;

chet tillarni o‘rganishni yanada rivojlantirish bo‘yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi;

chet tillarni bilish darajasini baholash vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha mustaqil ekspertlardan, yetakchi pedagog-mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni tashqil etadi;

baholash vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhlar uchun maxsus treninglar o‘tkazadi;

baholash vositalarining spetsifikatsiyalarini ishlab chiqadi;

spetsifikatsiyalar asosida baholash vositalarini ishlab chiqadi;

ijodiy guruhlar ishtirokida baholash vositalarini muhokama qiladi va o'zgartirishlar qiritadi;

chet tillarni bilish darajasini baholash vositalarini aprobatsiyadan o'tkazadi;

aprobatsiya natijalarini statistika asosida didaktik taxlil qiladi;

aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan baholash vositalarini spetsifikatsiya asosida elektron bazasini tashkil etishda ishtirok etadi;

chet tili bo'yicha davlat ta'lim standartlarini o'rganadi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha taklif tayyorlaydi;

baholash vositalarini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni, xorijiy o'quv-markazlarining tajribasini o'rganadi;

chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash bo'yicha me'yoriy hujjatlarni va uslubiy asoslari (nizom, tartib, yo'riqnoma, mezon, shakl, jadval, uslubiy tavsiyanoma, dasturlar)ni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Chet tillarini bilish darajasini baholashning texnik-dasturiy ta'minotini rivojlantirish bo'limi

Bo'limning asosiy vazifalari chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashning Milliy test tizimini texnik-dasturiy ta'minotini yaratish va rivojlantirish, kompyuter va informatsion texnologilar asosida test sinovlari natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va test sinovlarini o'tkazish usullarini yanada takomillashtirishdan iborat.

Bo'limning funksiyalari quyidagilardan iborat:

chet tillarni o'rganish darajasini baholash uchun test sinovini o'tkazish bo'yicha dasturiy ta'minotini yaratish va rivojlantirish;

test sinovini o'tkazish uchun topshiriqlar bazasini tashkil etish va uni boshqarish tizimini yaratish;

test sinovlari uchun topshiriqlarni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

test sinovlari natijalari asosida test topshiruvchilarning chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlab unga tavsiya va ko'rsatmalar berish tizimini yaratish;

test sinovlari natijalari asosida test topshiriqlari sifatini matematik-tahlil usullari bilan tashxislash;

test sinovi natijalarini pedagogik o'lovlar bilan tahlil etish;

to'plangan ma'lumotlar bazasi asosida Respublika ta'lim muassasalari bitiruvchilarining chet tilini bilish va egallash darajasi bo'yicha ta'lim sifati monitoringini olib borish;

test sinovi jarayoni va uning natijalarini tezkor kompyuter tahlili uchun informatsion-kommunikatsion texnologiyalarining texnik vositalarini, lokal va global tarmoqlarning uzluksiz ishlab turishini ta'minlash;

barcha ma'lumotlar bazalari va dasturlari maxfiylikini ta'minlash va ularning nusxalarini saqlash;

o'rganuvchilar uchun test sinovlariga doir zarur ma'lumotlarni internet tarmog'iga joylashtirish uchun boshqarma veb-saytini yaratish;

Internet, E-Hujjat va E-Xat dasturiy ta'minotini doimiy ishlashini va foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumotlarni tezkorlik bilan va xavfsiz ma'lumot almashinuvini ta'minlash;

veb-saytning illyustratsiyasi va strukturasi takomillashtirish, saytdagi axborot resurslarini qidirish, yuklab olish va ishlash imkoniyatlari qulayligini oshirish va muntazam ravishda ma'lumotlarni yangilanib borish;

veb-saytda joylashtirilgan axborotlarning yo'q qilinishi, to'sib qo'yilishi, buzib talqin qilinishi, qalbakilashtirilishi va soxtalashtirilishining hamda boshqa shakllardagi ruxsatsiz aralashuvlarning oldini olish bo'yicha muhofaza chora-tadbirlar ishlab chiqish va qo'llash;

boshqarma faoliyatiga taalluqli dasturiy ta'minotlarni yaratish;

boshqarmada mavjud texnik vositalarining ishchi holatida bo'lishini ta'minlash;

boshqarma xodimlarini ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va qo'llash;

bo‘lim faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha ilg‘or va xalqaro tajribaga ega tashkilotlar tajribasini o‘rganish va hamkorlikda faoliyat yuritish.

Test sinovlarini tashkil etish va malaka sertifikatlarini berish bo‘lim

Bo‘limning asosiy vazifalari:

xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini aniqlash maqsadida kompleks test sinovi o‘tkazishni tashkil etish;

davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berish.

Bo‘limning funksiyalari quyidagilardan iborat:

chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo‘yicha kompleks sinovlarini o‘tkazish tartibini ishlab chiqadi;

chet tilini bilish va egallash darajasini tasdiqlaydigan davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatlarini berish tartibini ishlab chiqadi;

o‘rganuvchilarning mustaqil ravishda chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun testga tayyorlanish bo‘yicha zarur ma'lumotlarni tayyorlaydi va Internet tarmog‘iga joylashtiradi;

DTMning byudjetdan tashqari daromadlari hisobidan ekspertlarni va imtihon oluvchilarni jalb etadi;

chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun kompleks sinovlarini tashkil etadi;

talabgorlarga kompleks sinovi natijalari asosida chet tilini bilish darajasiga davlat namunasidagi sertifikat rasmiylashtiradi, tarqatadi, sertifikatlarning qat'iy nazoratini olib boradi;

davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatlarining reestrini yuritadi;

kompleks sinovdan o‘tib, chet tilini bilish darajasiga malaka sertifikat olmoqchi bo‘lganlarning arizasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi;

kompleks sinovidan o‘tadigan nomzodlarning ro‘yxatini shakllantiradi, kompleks sinovini o‘tkazish jadvalini tuzadi;

test sinovi natijalarining xolisligi, ishonchliligi va adolatliligini ta'minlashda ishtirok etadi;

test sinovlariga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayoniga tashkiliy- uslubiy hamda amaliy rahbarlik qiladi;

kompleks sinovini o'tkazish uchun jalb etiladigan nazoratchilar uchun seminarlar tashkil etadi;

kompleks sinovini o'tkazish uchun jalb etiladigan nazoratchilar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;

kompleks sinovlarini tashkil etishga oid yo'riqnomalar ishlab chiqadi va nashr etishda ishtirok etadi;

sinov materiallari mazmunini maxfiyligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini bajaradi;

kompleks sinovi xizmatidan foydalanuvchilarning taklif va talablarini o'rganadi, tahlil qiladi, umumlashtiradi va tavsiyalar ishlab chiqadi, Boshqarmaga taqdim etadi;

davlat namunasidagi sertifikatni ishlab chiqish bo'yicha vakolatli idoralarga buyurtma beradi;

talabgorlarga kompleks sinovi natijalari asosida chet tilini bilish darajasiga davlat namunasidagi sertifikat rasmiylashtirish, ro'yxatga olish va uning qat'iy nazoratini olib borish;

Boshqarma materiallarining belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlaydi.